O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Rektor G.Rixsiyeva
2021-yil“ 28 ” 08

# O‘RGANILAYOTGAN MAMLAKAT TARIXI (ERON)

## FANINING O‘QUV DASTURI

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200000 | – | San’at va gumanitar soha |
| **Ta’lim sohasi:** | 220000 | – | Gumanitar fanlar |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60230200 | – | Tarjima nazariyasi va amaliyoti (sharq tillari bo‘yicha) |

Toshkent - 2021

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2016.- 56 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қурамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 488 б.
3. Арабаджян З.А. Иран: власть, реформы, революции (XIX-XX вв.). М., 1994
4. Колесников А.И. Денежное хозяйство в Иране. М., 1998.
5. Р.Фрай. Наследие Ирана. 2-е издание. М., 2002.
6. Ланов А. По персидским дорогам. М., ОГИЗ «Молодая гвардия», 1934.
7. Сеидов Р.А. Иранская буржуазия в конце XIX - начале XX века. М., 1974.
8. Васильев Алексей. Россия на Ближнем и Среднем Востоке: от мессианства к прагматизму. М., «Наука», 1993.
9. История Ирана. Отв. редактор проф. Иванов М.С. М., Издательство МГУ, 1997.
10. Куликан Уильям. Персы и мидяне. Подданные империи Ахеминидов. М., 2002

**Axborot manbalari**

1. https://www.history.ru
2. https://turuz.com
3. https://www.academia.edu

**7.** O‘quv dasturi “Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi” kafedrasida ishlab chiqilgan va 2021 - yil “26” 08 dagi “01” - sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

O‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2021 - yil “28” 08 dagi “1” - sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

**8. Fan/modul uchun mas’ullar:**

G.Ishanova - TDSHU, “Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi” kafedrasi o‘qituvchisi

**9. Taqrizchilar:**

K.S.Azimov - TDSHU, “Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi

D.J. Urakov – O‘zMU “Jahon tarixi” kafedrasi mudiri, tarix fanlari nomzodi, dotsent (turdosh OTM).



| Fan/modul kodi | O‘quv yili | Semestr | ECTS - Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|
| MT108 | 2021-2022 | 2 | 4 | |
| Fan/modul turi | Ta’lim tili | | Haftadagi dars soatlari | |
| Majburiy | O‘zbek/rus | | 4 | |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg‘ulotlari (soat) | Mustaqil ta’lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | O‘rganilayotgan mamlakat tarixi (Eron) | 60 | 60 | 120 |

**2.**

**I. Fanning mazmuni**

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarga O‘rganilayotgan mamlakat tarixi (Eron) fanining nazariy va amaliy asoslari, Eron tarixini davrlashtirishning asosiy tamoyillari, janubi-g‘arbiy Osiyo hududida forslarning paydo bo‘lishi va ushbu mintaqada ilk davlatchilik paydo bo‘lishidan boshlab muhim tarixiy davrni yoritishga oid bir qator masalalarni, janubi-g‘arbiy Osiyo hududidagi etno-madaniy jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, moddiy madaniyat xususiyatlarini o‘rgatish hamda ularda xolisona ilmiy dunyo qarashni, ko‘nikma va malaka hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifasi - fors xalqlari davlatchilik tarixining shakllanishi, rivojlanishi va fors etnosining paydo bo‘lish bosqichlarini kuzatish; turli davr (qadim zamon, o‘rta asr, yangi va eng yangi zamon) dagi fors jamiyatning rivojlanish tarixini o‘rganishdan iborat. Ushbu fan hozirgi Erondagi vaziyatni to‘laroq tushunib olish uchun zarur va dolzarbdir. Eron siyosiy tarixining xususiyatlari va nozik jihatlari, an’analari va hozirgi hayotini bilish talabalar uchun zarur bo‘lgan amaliy ahamiyatga egadir. Eron tarixinning barcha bosqichlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma’naviy taraqqiyoti; mamlakatda qadimdan hozirgacha davlatchilik jarayonlari tarixi; xalqaro munosabatlarda tutgan o‘rni va roli; xalqlarning madaniy rivojlanishi, o‘ziga xos xususiyatlari va tarixiy bosqichlari; dunyo xalqlari madaniyatining o‘zaro aloqalari va ta’siri; qadimdan hozirgi kungacha mintaqada shakllangan ijtimoiy-siyosiy ta’limotlar, iqtisodiy dunyo qarashlar; mamlakatdagi dinlar, diniy munosabatlar va ularning mazhab hamda oqimlari hamda ularni ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘rni va rolini aniqlash kabi masalalarni ochib berish.

**II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**MODUL I. (Qadimgi va o‘rta asrlar)**

**1-mavzu. O‘rganilayotgan mamlakat tarixi (Eron) faniga kirish**

Fanning maqsadi va vazifalari, o‘tiladigan mavzularga tuzilmaviy

mantiqiy chizma asosida tushuncha berish, Eron tarixini davrlashtirish masalalari, Eron tarixshunosligi, uning tarixiy rivojlanishidagi umumiy va o‘ziga xos muammolari, Hozirgi Eron Islom Respublikasining umumiy xususiyatlari, turli davrlardagi Eronning geografik chegaralari, Eronning dunyo madaniyatiga qo'shgan hissasi. Behustun bitiklari va ularning tarixiy ahamiyati. Naqshi Rustam yodgorliklari.

**2-mavzu. Eron tarixidagi qadimgi davlatlar. Midiya**

Dastlabki ko‘chmanchi urug‘-qabilalar va ularning etnik tarixidagi o‘rni. Qadimgi eronliklar: etnik tarixining kelib chiqishi va asosiy bosqichlari. Ko‘chmanchilikning paydo bo‘lishi antik davrning iqtisodiy tarixidagi yangi bosqichdir. Eramizdan oldingi VII asrda Qadimgi Erondagi ilk davlati Midiyaning yuzaga kelishi, xalqlarning shakllanishi va uning etnik tarixining asosiy bosqichlari. Forsiyzabon qabilalar yashagan hududlar.

**3-mavzu. Ahamoniylar imperiyasining tashkil topishi.**

Ahamoniylar davlatining tashkil topishi. Podshoh Kir II ning taxtga kelishi va siyosiy faoliyati. Ahamoniylar va ko‘chmanchi fors qabilalarning bosqinchilik harakatlari. Eramizdan avvalgi VI asrda qadimgi Eronda davlat boshqaruvi. Butun g‘arbiy va sharqiy Osiyo ustidan Ahamoniylar hukmronligini o‘rnatilishi. Doro I hukmronligi davrida Erondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Ma’muriy sohada amalga oshirilgan islohotlar. Ahamoniylar davri madaniyatining vujudga kelishi va rivojlanishi. Arxitektura sohasidagi yutuqlar. Agrar siyosat. Savdo va iqtisodiy munosabatlar. Harbiy harakatlar.

**4-mavzu. Aleksandr Makedonskiyning bosqinchilik yurushlari.**

Butun yunon dunyosining Filipp Makedonskiy tomonidan birlashtirilishi va Aleksandr tomonidan Doro III ning fors mamlakatiga yurish qilinishi. Ahamoniylar imperiyasining inqirozi. Yunonlar tomonidan Ahamoniylar imperiyasini bo‘ysundirilishi. Aleksandr Makedonskiyning Sharqqa tomon olib borgan harbiy harakatlari. Bosqinchilik yurishlari va ularning oqibatlari.

**5-mavzu. Sosoniylar davlatining tashkil topishi.**

Sosoniylar tomonidan davlat hokimiyatini egallanishi. Ko‘plab ko‘chmanchi qabilalarni mustamlaka qilinishi. Murakkab davlat boshqaruvi asosida va qat’iy tartib bilan davlatni yuritilishi. Ardashir va uning vorisi Shopur I tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy islohotlar. Davlat boshqaruvini mustahkamlash maqsadida amalga oshirilgan ishlar ko‘lami va mohiyati. Sosoniylar davlatini yirik bosqaruvga aylanishi. Sosoniylarning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Sosoniylar jamiyatining madaniy va diniy hayoti.

**6-mavzu. Arablar hukmronligi davrida Eron. Ummaviylar va Abbosiylar.**

Ma’lumki, VI asr II-yarmi va VII asr boshlarida Arab yarim orolida



Eron tarixini, uning tarixiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda batafsil tavsiflash, jahon tarixiy jarayoni kontekstida Eronning tarixiy-huquqiy va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish va tushuntirish, ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda, tarixiy rivojlanishning turli bosqichlarida Eron tarixini tahlil qilish, Erondagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tizimlarning tarixiy xilma-xilligini hisobga olgan holda siyosiy madaniyat va mentalitetning o'ziga xos xusuiyatlarini tahlil qilish, Eronning tarixiy rivojlanishining turli bosqichlarida islom omili va uning turli xil ko'rinishlarini hisobga olgan holda tarixiy jarayonning asosiy yo'nalishlarini tushuntirish, Eron tarixi bo'yicha ilmiy adabiyotlar va manbalardan, shuningdek ularda mavjud bo'lgan atamalardan foydalanish, Eron tarixining asosiy parametrlari va tendensiyalarini yoritish va tahlil qilish, Eron tarixining ijtimoiy-siyosiy voqeliklarini tahlil qilish, ilmiy tadqiqot institutlari fondlari materiallaridan foydalanish va amaliyotda qo‘llash **malakalariga ega bo‘lishi kerak.**

**4. VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**

- ma’ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlar qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

**5. VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.

**6. VIII. Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlari hamda axborot manbalari**

**Asosiy adabiyotlar**

1. История Востока. Часть 1. Восток в древности.М., 1997.
2. А.М. Родригес. «Новейшая история стран Азии и Африки» XX век I. II. III. М. 2001.
3. Немировский А.И. История древнего мира Часть 1-2. М., 2000
4. Васильев В. История Востока 2-том. М., 2004
5. Radjabov R. Kadimgi dunyo tarixi. T., 2009.
6. Umumiy tarix. Qadimgi davr. O‘quv qo‘llanma. T., 2010.
7. А.З.Арабаджян. Иранская революция 1978-1979. М., 1989
8. Жан-Поль Ру. История Ирана и иранцев. Париж. 2006
9. Алиев С.М. История Ирана в XX в. М., 2004

**Qo‘shimcha adabiyotlar**

| | |
|---|---|
| | 11. XX asr I-choragida Eronda milliy-ozodlik harakatlari (kurashlari).<br>12. II-jahon urushi yillarida Eron.<br>13. Islom revolyutsiyasi va EIRni tashkil topishi (1978-1979 yillar)<br>14. EIRning ma'muriy-hududiy bo'linishi va mahalliy boshqaruv<br>15. Eronda gender tengligi muammosi<br><br>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. |
| 3. | **V. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalari**<br>Talaba bilishi kerak:<br>• O'rganilayotgan mamlakat tarixi (Eron) faning maqsad va vazifalari, eron tarixining asosiy bosqichlari, Eronning dunyo madaniyatiga qo'shgan hissasi mazmuni, insoniyat madaniyati tarixi kontekstida forsiy xalqlarning san'ati, madaniyati va urf-odatlari, Eron tarixiga oid asosiy manbalarning umumiy mazmuni, XI-asrdan to hozirgi kungacha bo'lgan Eronning tarixiy rivojlanish tendensiyalari, Eron tarixining turli bosqichlarida uning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan ichki va tashqi omillarning asosiy mazmuni, Eronda tarixan rivojlangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tizimlarning o'ziga xos xususiyatlari, eronning siyosiy madaniyati xususiyatlari va ularning mentaliteti, Eronda ijtimoiy va siyosiy institutlarning shakllanishi va faoliyatiga islomning ta'siri darajasi, Eron tarixining turli bosqichlarida uning asosiy parametrlari va yo'nalishlari, Eron tarixi bilan bog'liq bo'lgan muhim atamalarning ma'nosi, Eron tarixining muhim ijtimoiy-siyosiy voqeliklarining tarixiy kelib chiqishi va konteksti hamda ulardan ilmiy maqsadlarda foydalanish haqida **tasavvur va bilimga ega bo'lishi;**<br>• talaba tarixiy ma'lumotlarni ilmiylik, tarixiylik, xolislik asosida o'rganishi, internet ma'lumotlarini, Eron tarixining asosiy bosqichlari va huquqiy mazmunini tahlil qilish, mustaqil ravishda Eron tarixi bo'yicha adabiyot va manbalar bilan ishlash, Eronning tarixiy rivojlanishining har bir bosqichidagi asosiy rivojlanish tendentsiyalarini tushuntirish, ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda eron siyosiy madaniyatining xususiyatlarini tushuntirish, Erondagi ijtimoiy-siyosiy institutlarga islom omilining ta'sir o'tkazishi va uning darajasini tahlil qilish va aniqlash, Eron tarixining turli bosqichlarida uning asosiy parametrlari va yo'nalishlarini oqilona tahlil qilish, ko'rsatilgan atamalardan, shu jumladan ilmiy munozaralarda foydalanish, tarixiy va madaniy voqeliklarni tahlil qilish, Eron tarixiga oid manbalarni mustaqil tadqiq qilish va o'rganish **ko'nikmalariga ega bo'lishi;**<br>• Eron va boshqa mamlakatlarning tarixiy jarayonini tahlil qilish, mustaqil ishlash, Eron tarixiga oid masalalar bo'yicha ma'lumot izlash, |



| | |
|---|---|
| | Islom dinini ommalashishi hamda yirik ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy kuchga aylanishi shu mintaqa va unga yaqin qo'shni hududlar uchun yangi bir siyosiy davrni boshlab berdi. Ummaviylar, Abbosiylar va undan keying turli xalifaliklar davrida Eronning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy hayoti va uni rivojlanishi. Xalifaliklarni davlatni kengaytirish va mustahkamlash maqsadida olib borgan ichki va tashqi urushlari. Savdo va iqtisodiy munosabatlar.<br><br>**7-mavzu. Mo'g'ullarning bosqinchilik siyosati.**<br>Mo'g'ullar davlatining tashkil topishi va bosqinchilik harakatlarining boshlanishi. Chingizxon qo'shinining O'rta Osiyo va Eronga qarshi bosqinchilik harakatlari. Chingizxon o'limidan so'ng Mo'g'ullar imperiyasi. Xulokuxonning Eronga qarshi bosqinchilik yurushlari. Xulokular davlatinin tashkil topishi. Erondagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot. G'ozonxon siyosiy foliyati va islohotlari. XIII-XIV asr boshlarida xalq ozodlik xarakatlari. Xulokular davlatining inqirozga uchrashi.<br><br>**8-mavzu. Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida Eron.**<br>Amir Temurning hokimyat tepasiga kelishi. Temuriy hukmdorlarning amalga oshirgan harbiya harakatlari. 3 yillik, 5 yillik va 7 yillik harbiy yurishlar hamda ularning tarixiy ahamiyati. Xurosonda sarbadorlar harakatining boshlanishi. Sarbadorlar davlatining tashkil topishi. Ichki nizolarning avj olishi. Gilon va Mozandarondagi xalq harakatlari. Kermondagi sarbadorlar harakati. Amir Temurning Eronni zabt etishi. Amir Temur vorislari davrida Eron. Sulton Shoxrux mirzoning siyosiy faoliyati. XV asrning 1 yarmida Erondagi xalq qo'zg'olonlari.<br><br>**9-mavzu. XVIII asrda Erondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.**<br>Safaviylar davlatining chekka hududlaridagi xalq ozodlik xarakatlari. Afg'onlarning bosqinchilik harakatlari. Eronliklarning afg'on bosqinchilariga qarshi kurashlari. Afg'onlarning mamlakatdan quvib chiqarilishi. Nodirshohning hokimyat tepasiga kelishi. Rossiya va Turkiya bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishi. Nodirshohning ichki va tashqi siyosati. Karimxon Zend hukmronligi davrida Eron. XVI-XVIII asrda Erondagi madaniy hayot.<br><br>**10-mavzu. XX asr I-choragida Eronda konstitutsion revolyutsiya.**<br>Eronda Konstitutsiyaviy harakatning kuchayishi va revolyutsiya. Yangi islohotlar va ularning dasturi. Rizo Paxlaviyni yangi shahanshoh deb e'lon qilinishi va uning siyosiy faoliyatini boshlanishi. XX asr birinchi choragida mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tanazzulni kuchayishi. Agrar sohani inqirozga yuz tutishi. Mamlakatdagi ishsizlik. Norozilik harakatlari. Rizo Paxlaviy tomonidan katta va keng ko'lamdagi islohotlarni boshlanishi. Mamlakatni modernizatsiya qilish va industrializatsiyalashtirish harakatlarini |

boshlanishi.

**11-mavzu. 1-jahon urushi davrida Erondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.**

Urushning boshlanish sabablari. Urush davrida mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tanazzulni kuchayishi. Tehron konferensiyasi. Rossiya-Eron sulhi. Angliya-Eron sulhi. I-jahon urushi davrida Eronda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy hayot. Diniy-siyosiy harakatlarni Hojarlarga qarshi harakati. Eronning bo'lib olinishi.

**12-mavzu. II-jahon urushi arafasi va davrida Eron.**

Rizo Paxlaviy siyosiy faoliyati inqirozini kuchayishi. Jahon siyosiy sahnasida avj olgan millatchilik va shovenestik mafkuralar g'alayonining sharq mintaqasi, xususan, Eronda paydo bo'lishi, mamlakat ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotiga ta'siri. Mamlakatda siyosiy tanazzulni kuchayishi. Agrar soha inqirozi. Mamlakatda ishsizlikni kuchayishi, norozilik harakatlari. Rizo Paxlaviyni taztdan voz kechishi. Muhammad Rizo Paxlaviyni taxtga kelishi. Yangi podshoh tomonidan boshlangan islohotlarni amaldagi natija va samarasi.

**13-mavzu. XX asr 60-70 yillarida Eronda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy hayot. "Oq inqilob"ni yuzaga kelishi.**

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda Eron ijtimoiy-siyosiy hayoti. Neftni qazib olish va uni qayta ishlash sohasining rivojlanishi. Eron nefti ustidan Angliya monopoliyasining o'rnatilishi. Milliy Front. 1963 yil 26 yanvarda o'tkazilgan referendum. Muxammad Rezo Paxlavining islohotlar dasturi. "Oq inqilob".

**14-mavzu. XX asr so'nggi choragida Eronda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy hayot.**

XX asrning so'nggi choragida Erondagi norozilik harakatlari. Mamlakatda korrupsiyaning avj olishi. Mamlakatda ko'ppartiyaviylik tizimining tugatilishi. Mamlakatda turli diniy harakatlarni ta'sirining kuchayishi.

**15-mavzu. XXI asr boshida Eronda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy hayot. Xalqaro munosabatlar.**

Eronning konservativ qanotini Prezident M. Xotami boshchiligidagi yangi hukumat liberallashtirish jarayonini sekinlashtirishi. M. Xotamini nafaqat liberallashtirish yo'lini davom ettirishi, balki mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish choralarini ko'rishi. 2000 yilda mamlakat Rejalashtirish tashkiloti hamda Boshqaruv tashkilotini birlashtirilishi. Rejalashtirish va byudjet tashkiloti maqomi yangilanishi. XXI asr boshidan besh yillik rejalarni kuchaytirilishi. Reja to'g'risidagi qonun rejaning



bajarilishi to'g'risida yillik hisobotni talab qilinishi. Besh yillik rejalarni amalga oshirishga xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish va himoya qilish to'g'risida yangi qonunlarni qabul qilinishi.

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Eroniklarning jahon tarixida tutgan o'rni.
2. Qadimgi Eron hududida ilk davlatlarning paydo bo'lishi.
3. Ahamoniylar hukmronligi davrida Eron.
4. Ahamoniylar davlati inqirozi. Sabab va oqibatlari.
5. Sosoniylar davridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.
6. Arab xalifaligining davlat boshqaruv tartibotlari
7. Xulokular hukmronligi davrida madaniy hayot.
8. Temuriylarning siyosiy faoliyati.
9. XVIII asrda Erondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.
10. XIX asrda Erondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.
11. 1-jahon urushi davrida Eronning xalqaro maydondagi mavqei.
12. 2- jahon urushi davrida Erondagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy hayot.
13. XX asr so'nggi choragida Eronda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy hayot.
14. Eronda islom inqilobi va uning ahamiyati.
15. XXI asr boshida Eronning xalqaro maydondagi o'rni.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qadimgi davr Eron tarixiga oid adabiyotlar tahlili.
2. Eron hududidagi qadimgi davlatlar (Elam, Midiya).
3. Ahamoniylar hukmronligi davrida ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot.
4. Sosoniylar hukmronligi davrida ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot.
5. Eronga Islom madaniyatini kirib kelishi.
6. Somoniylar hukmronligi davrida siyosiy va madaniy hayot.
7. Amir Temurning Eronga yurishi va uning tarixiy ahamiyati.
8. Yevropaliklarni Erondagi istilochilik harakatlari.
9. XIX asrda Evropa mamlakatlarining Eron uchun kurashi
10. Eronda neftni topilishi va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy haotiga ta'siri.